



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYAVIY DARSLARNING AHAMIYATI.

Tajekbayeva.Z.K.

*QRPMM Maktabgacha, boshlang'ich va
maxsus ta'lim metodikalari kafedrası
katta oqituvchisi*

Annotasiya: Har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning o'rni katta. Boshlang'ich ta'lim davri har bir shaxsning keyingi hayotini belgilab beradi, boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning eng asosiy omillaridan biri ta'lim jarayonini metodik ta'minlashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Kalit sozlar: sog'lom, avlod, tarbiyalash, ta'lim, shaxs, sifat, samaradorlik, omillar, ko'nikmalar, vositalar.

Аннотация: Начальное образование играет важную роль в воспитании всесторонне здорового поколения. Период начального образования определяет дальнейшую жизнь каждого человека, одним из основных факторов повышения качества и эффективности начального образования является методическое обеспечение образовательного процесса. Целесообразно формирование у учащихся начальных классов необходимых навыков, поднятие на новый уровень эффективности качества начального образования, внедрение в практику современных методов и средств обучения.



Ключевые слова: здоровый, поколение, воспитание, образование, личность, качество, эффективность, факторы, навыки, средства.

Annotation: Primary education plays a significant role in raising a comprehensively healthy generation. The period of primary education determines the further life of each person, and one of the main factors in improving the quality and effectiveness of primary education is the methodological support of the educational process. It is advisable to form the necessary skills in primary school students, raise the quality of primary education to a new level, and introduce modern teaching methods and tools into practice.

Keywords: healthy, generation, upbringing, education, personality, quality, effectiveness, factors, skills, tools.

Davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan barcha islohotlar, sog'lom bolalarni voyaga yetkazishga asoslangan. Shuning uchun barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar kabi bolalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar va ularni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning o'rni katta. Boshlang'ich ta'lim davri har bir shaxsning keyingi hayotini belgilab beradi, boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning eng asosiy omillaridan biri ta'lim jarayonini metodik ta'minlashdir.

Dastur asosida «Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.



O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Bugungi kunda yoshlarimizga ta'lim berish bilan birgalikda o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi yoshlarning faolligini oshirish, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish yo'lga qo'yilgan. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar va pedagog xodimlar o'rtasida o'zaro ijodiy raqobatni kuchaytirish maqsadida hafta kunlariga nom berilib, alohida maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish yo'lga qo'yilgan.

Umumta'lim maktablarida «Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari va o'quvchilarning odob-axloq qoidalari», «Tarbiyaviy soatlar»ning namunaviy rejasi asosida o'tilishi, bolalarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani shakllantirish, o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'oya, g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan. Bu borada boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy darslarning o'rni va ahamiyati katta.

Tarbiyaviy darslarni o'tish sinf rahbarining vazifalaridan biri bo'lib, haftada bir marotaba, yiliga 34 darsni tashkil qilib o'tishlari zarur. Ilgarilari boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarbiyaviy darslarni o'tishda qiynalardi. Chunki, tarbiyaviy darslarning faqat mavzu rejasi mavjud bo'lib, tarbiyaviy darslarni asosan bayram sanalariga bag'ishlangan ssenariysi, undan tashqari, kasbga yo'naltiruvchi mavzular: «Kim bo'lsam ekan», «Non - aziz» mavzulari yuzasidan ilg'or tajribali o'qituvchilargina ushbu mavzularning ssenariysini o'zlari tuzib ochiq darslar o'tkazishar edi. Yosh mutaxassislar va tajribasi kam o'qituvchilar ularning ishlagan dars ishlanmalaridan foydalanib tarbiyaviy darslarni o'tishar edi. Qolaversa, tarbiyaviy dars haftaning shanba kunlari, oxirgi soatlarga qo'yilar edi. O'qituvchilar ushbu darsni «sinf soati» bilan almashtirishar edi. Chunki o'qituvchilar bu darsda o'quvchilarning darsdagi davomati va ularning axloqi



haqida gaplashar, ayrim o'qituvchilar asosiy darslarda ulgurmay qolgan darslarni o'tishar edi.

Davlatimiz tomonidan tarbiyaviy darsga katta e'tibor qaratilib, o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyatni shakllantirish maqsadida uni «ma'naviyat darsi» darajasiga ko'tarishdi. Maktablarimizda haftaning har juma kuni «ma'naviyat kuni» deb belgilanib, tarbiyaviy darslarni o'sha kuni birinchi darsda o'tishlari belgilandi. Bu darsda bolalarning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u inklyuziv bola boladimi, boshqa mi, mavzu yuzasidan bir hafta oldin olgan taassurotlari bilan ma'naviyati shakillanishi zarur. Chunki o'qituvchi darsni shunday qilib tashkil qilishi kerakki, o'quvchilar, «ushbu darsni o'qituvchi tezroq o'tsalar ekan» - degan fikr bilan navbatdagi tarbiyaviy darsni kutib yashashi kerak. Yuqorida aytilgan talablarning chora - tadbirini, ya'ni boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy darslarni tashkil qilishda ayrim mavzular bo'yicha quyidagi tarbiyaviy darsni tavsiya qilmoqchimiz. Tarbiyaviy dars - o'quvchi shaxsini shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o'zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy darslarning samaradorligini oshirish tarbiyaviy ishlar texnologiyasini to'g'ri tashkil qilish va qo'llashga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uslubiylatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlanmalari asosida yaratishni talab etadi.

Tabiatni sevamiz va asiraymiz

Dars maqsadi: - o'quvchilar tabiat go'zalligidan bahramand bo'lishga o'rganadi va uning qadriga yetish haqida o'ylab ko'radilar.

Jihozlar: har xil shaklga ega darxt shoxlari, har bir guruh uchun tabiat manzarasi tushurilgan bitta yig'ma rasm-puzzle (1-ilova), A4 qog'ozi, yelim.



Dars jarayoni:

I. O'qituvchi nutqi (10 minut). Bolajonlar, bugun biz tabiyatning g'aroib sehrli olami haqida gaplashamiz. Har kuni ko'zimizga oddiy ko'ringan ko'chadagi darxtnlar, gullar tabiatning ajralmas bo'lagi xisoblanadi. Ularning ham joni bor: kurtak chiqaradi, yaproqlaydi, gullaydi, o'sadi, nafas oladi va chiqaradi.

Qo'limdagi har xil shakldagi shoxlarga yaxshilab razm soling. Bularning har biri bitta narsaga o'xshaydi. Xush, mana bu navda nimaga o'xshaydi?

(O'qituvchi har bitta navdani nimagadir o'xshatishga yordam beradi. Yoki birinchisini o'zi ko'rsatib beradi, qolganlarini o'quvchilar topadi. Masalan, ular biron bir hayvonga yoki buyumga o'xshashi mumkin).

- Hozir qaysi fasl?
- Derazaga boqing. Tabiatda qanday o'zagarishlar sodir bo'lmoqda?
- Agar butun dunyoda darxtnlar yo'q bo'ib qolsa, nima bo'ladi?
- Agar juda ko'p bo'sachi?

II. Kichik guruhlarda ishlash (15 minut). O'qituvchi o'quvchilarni 5-6 kishilik kichik guruhlariga bo'ladi va har bir guruhga alohida tabiat manzarasi tushurilgan bitta yig'ma rasm (puzzle - har xil shaklda kesilgan) va A4 qog'ozi beriladi.

Topshiriq: 1. Guruhingiz bilan birga ushbu rasm bo'laklarini to'g'ri joylashtiring va qog'ozga yelimlang.

2. Hosil bo'lgan tabiat manzarasini chiroyli qilib ta'riflab bering.

III. Taqdimot (10 minut). Har bir guruhdan ikkita ishtirokchi chiqib bittasi guruh ishini taqdim etadi, ikkinchisi rasmni izohlab beradi.

IV. Muhokama (10 minut).

* Bugungi mashg'ulotimiz sizga yoqdimi? Nimasi bilan?



- * Qaysi guruhning rasmi va tasvirlashi sizga yoqdi? Nima uchun?
- * Shahrimiz/qishlog'imiz shunday go'zal manzaraga ega bo'lishi uchun nima qilishimiz kerak?
- * Sinf, maktab, xonodonimizda toza havodan nafas olish uchunchi?
- * Gullar, ko'chatlar tez o'sishi uchun unga qanday parvarish lozim?
- * Agar har bittangiz 1 ta ko'chat eksangiz, jami neshta bo'ladi?
- * Usha ko'chatlar siz maktabni bitirguncha necha yoshga to'ladi?
- * Agar ular meva darxti bo'lsa, biz qanday foyda ko'ramiz?
- * Bundan qanday xulosa chiqarasiz?

Xulosa qilib aytadigan bulsak, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining «O'quvchi ma'naviyatini shakllantirishda tarbiyaviy soatlarning ahamiyati» nomli tavsiyasida: «Ta'lim berib tarbiyalaymiz, tarbiyalab turib ta'limni shakllantiramiz. Shuning uchun tarbiyaning ta'limdagi, ta'limning tarbiyadagi o'rni beqiyos»- deyilgan.

Sinf rahbarlari tavsiya etilgan dars ishlanmalaridan samarali foydalanadi degan umiddamiz. Ammo har bir sinfning bilim darajasi, yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularga o'zgartirishlar kiritishi va qo'shimcha adabiyotlar, manbalardan foydalanib, darsni yana da boyitishi uchun o'z ustida tinmay ishlashi va izlanishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T., 1997.
2. Omonova M., Bobomurotova D., Xaydarova U. «Umumta'lim maktablarining 1-sinflarida «Tarbiyaviy soat» mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha sinf rahbarlari uchun metodik qo'llanma» Toshkent. 2013.
3. Ishmuxammedov R., Abdiqodirov A., Pardaev A. «Ta'limda innovatsion texnologiyalar» T., 2008